



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№6(3)

2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 246 sahifa,
9-iyun, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapijranovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – “Yangi O'zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

O'zbek bolalar folklorining etnopsixologik jihatlarini o'rganishning ahamiyati.....	10
<i>Alimbayeva Shaxlo Tursunovna</i>	
The Convergence of Educational Paradigms: Policy Borrowing, Adaptability, and Institutional Reform in Uzbekistan's Modern School System	15
<i>Lola Rakhmonovna Djurakulova, Karina Eduardovna Bushevskaya</i>	
Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida valeologik kompetensiyalarni rivojlantirish	21
<i>Xudoyberdiyev G'iyosiddin Baxtiyor o'g'li, Mamatqulov Davronbek Abdig'apparovich</i>	
Autizm spektridagi buzilishlarga ega bolalar rivojlanishida STEAM ta'lim texnologiyasining pedagogik ahamiyati.....	25
<i>Ne'matova Hilola Ikrom qizi, Ahmadova Zuhra Adizovna</i>	
Ozodlikdan mahrum qilingan shaxsning jazoni ijro etish muassasasidagi moslashuvining psixologik xususiyatlari	30
<i>Saydullayeva Muxabbat Abdullayevna</i>	
Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning ijodiy qobiliyatini rivojlantirishning pedagogik ahamiyati.....	33
<i>Shodiyeva Gulruh Xayrullayevna, Ergasheva Farog'at</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida gamifikatsion topshiriqlar asosida divergent fikrlashni shakllantirishning didaktik mexanizmlari.....	37
<i>Jalilov Muhammadali Abdumutalibovich, Saloydiovva Sevaraxon Mahammadsharif qizi</i>	
Darsdan tashqari mashg'ulotlarda boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy faoliyat tajribasini shakllantirish	41
<i>Sayfiddinova Muxlisa Sayfiddinovna</i>	
Harbiy xizmatchilar oilalarida inqirozlarni profilaktika qilishda ijtimoiy-psixologik xizmatlarning o'rni	45
<i>Sh. S. Kurbanova</i>	
Yosh onalarning pedagogik kompetensiyalariga oid ilmiy-nazariy yondashuvlar	49
<i>Yuldasheva Zulayxo Sadullayevna</i>	
Роль нарративно-экспозиционной терапии при работе с детьми, репатрированными из ЗОН вооружённых конфликтов	53
<i>Юлдашев Санжар Рузимуродович</i>	
Boshlang'ich sinf texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalar: muammo va uning yechimlari.....	57
<i>Mamatova Karomat Ilhomjonovna</i>	
Bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltirish jarayonlarida individual yondashuvning ahamiyati ...	61
<i>Asilova Sanobar Xatamboyevna</i>	
Optika bo'limini o'qitishning didaktik asoslari.....	66
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Shomurodova Maftuna Tolibjon qizi, Rayimova Muazzam Xolbobo qizi</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarida kompyuter grafikasiga oid kompetensiyalarni rivojlantirish uchun Gamified Project-Based Learning asosidagi integrativ metodika ishlab chiqish	69
<i>D. Y. Pulatova, G' R. Berdiyev</i>	
Psixologik savodxonlikning o'smirlar akademik savodxonligiga ta'siri.....	76
<i>Fayzullayev Mirzaodil Mirzamurodovich</i>	
Umumiy o'rta ta'lim maktablarida fizika darslarida loyihaviy ta'limni qo'llashning pedagogik asoslari	81
<i>Ismonov Turgunpulat To'liqinovich</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning tabiatga oid kompetensiyalarini rivojlantirishda mashg'ulot, ekskursiya va sayrlardan foydalanish metodikasi.....	84
<i>Maripova N. X.</i>	
Individual yondashuvga asoslangan pedagogik mexanizmlarni amaliyotga joriy etish metodikasi	88
<i>Nurova Malika Abduzairovna</i>	



Communicative Learning as a Basis for Critical Thinking Development	92
<i>Petrosyan Nelya Valerevna, Khalilova Farangiz Khoshimovna</i>	
Nikohdan oldingi hissiy-emotsional kompetentlikni rivojlantirishning ijtimoiy-psixologik omillari	97
<i>Raximova Gulxayo Alisherovna</i>	
Talabalarda chidamkorlikni rivojlantirishning ahamiyati	100
<i>Shaalimov Muxtorsha Atxamovich</i>	
Maktabgacha katta yoshdagi bolalarda ertaklar orqali tarbiya berish usullari	105
<i>X. Sh. Ochilova</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning ijtimoiy kompetensiyasini rivojlantirishda interfaol ta'lim texnologiyalarining samaradorligi	109
<i>Xalilova Dilnoza Furkatovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlari	112
<i>Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna</i>	
Bo'lajak buxgalleriya hisobi va audit sohasidagi talabarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslari	117
<i>Arziyeva Visola Namozovna</i>	
Boshlang'ich ta'lim mazmunini tizimlashtirishning didaktik va aksiologik tamoyillari	121
<i>Shabbazova Dilfuza Ruzikulovna</i>	
Munis Xorazmiy devonining o'rganilishi va uning tarixiy-etimologik tahlili	125
<i>Sharopova Durdona Azim qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar asosida pedagogik kompetensiyalarni takomillashtirish asoslari	129
<i>Tashmatova Gulzoda</i>	
Maktabgacha ta'limda steam yondashuvining didaktik imkoniyatlari	133
<i>To'xtaboyeva Maftunaxon G'aniyevna</i>	
Raqamli pedagogikaning zamonaviy ta'lim rivojlanishidagi o'rni	137
<i>Tojiyeva Asila Abdimannon qizi, Pardayeva Ra'no Eshboyevna</i>	
Talabalar jamoasida uchraydigan nizoli vaziyatlarning diagnostik tahlili	142
<i>Vaxobova Muxtabar Nurmuhimmat qizi</i>	
Kreativ yondashuv asosida talabalarining kasbiy sifatlarini shakllantirish	146
<i>Xolmatova Gulhayo Ulug'bekovna</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasining psixologik asoslari	151
<i>Xurvaliyeva Tarmiza Latipovna</i>	
Umumta'lim maktab direktorlarining boshqaruv samaradorligini oshirishda media va axborot savodxonligini rivojlantirish modelini takomillashtirish	156
<i>Abdulxakimova Ziyoda Latibjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining darsda muammoli STEAM loyihalarini yaratish ko'nikmalarini rivojlantirish	161
<i>M. S. Achilova</i>	
Optik tushunchalarni shakllantirish metodikasi	165
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Cho'liyeva Sofiya Sobirjon qizi, Shog'dorova Moxinur Bobomurot qizi</i>	
PHET simulyatsiyalari yordamida optikani o'rgatish	169
<i>Avulova Zamira Tursunmurodovna, Nomozova Dilnoza Mamarajab qizi, Toshmirzayeva Buvioysha Panji qizi, Ruziyeva Jasmina Sirojiddin qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilari ijodiy fikrlashini o'ziga xos jihatlari	173
<i>Gafurova Shoxista Erali qizi</i>	
O'zbekiston hududlarida yengil atletika infratuzilmasi va sportchilar tayyorlash tizimini tashkiliy-boshqaruv asoslari	178
<i>Hakimova Mushtariybonu Hamidovna, Tursunpolatova Ziyoda Jahongir qizi</i>	
O'zbekistonda mustaqil fikrlash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar tahlili	181
<i>Tursunova Dilbar Zafarovna</i>	

Methodology for Developing Competencies in Primary Education and the Communicative Analysis of Oral Speech.....	184
Turumbetova Aygul Yusupbaevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini "Tarbiya" darslarida o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga o'rgatish metodikasi.....	189
Ummatkulova Sayyora Shovkatovna	
Boshlang'ich sinflarda matematika ta'limini tashkil etish.....	191
Saydullayeva Shabbona Ashraf qizi, Axtamqul Azamqulov, Anvar Yusupov	
Metakognitiv xabardorlik ko'rsatgichlarining ta'lim shakliga bog'liqligi.....	195
Ermatova Robiya Bekjonali qizi	
The Integration of Artificial Intelligence Technologies in Esp Instruction: Enhancing Professional Communicative Competence in Higher Education.....	199
Ismailova Shaira Ferdausovna	
Intercultural Communicative Competence in English Language Teaching: Preparing Global Learners	204
Maqsudova Gulnoz Olimovna	
Teaching Reading Through Multimodal Texts: Enhancing Comprehension and Engagement in EFL Classrooms.....	208
Norboyeva Shahnoza Jo'rabek qizi	
Digital Technologies and Cognitive Competence Development in English Language Teaching.....	212
Sharipova Muhabbat Erkinovna	
Raqamli ta'lim muhitida sun'iy intellektga asoslangan elektron o'quv resurslarini loyihalashning konseptual-pedagogik asoslari va didaktik muammolar tahlili.....	216
Shirinov Feruzjon Shuxratovich, Raxmonov Ziyodillo Xusanovich	
Boshlang'ich ta'limda timss mezonlari: kontekstli muammolarga yondashuv	222
Yo'ldoshev Farhodjon Baxtiyor o'g'li	
O'qituvchilarning qadriyatlari va stressga barqarorlik o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikning psixologik tahlili	227
Yuldashova Dilafuz Shavkatovna	
Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirish pedagogik muammo sifatida	229
Safarova Madina Azamat qizi	
Социально-психологические особенности отношения студентов к использованию искусственного интеллекта chatgpt в образовательной деятельности.....	233
Аскарова Гулрух Оринбасаровна	
Диалог культур в произведениях русскоязычных писателей Узбекистана XXI века	239
Чернова Татьяна Алексеевна, Отакулов Фолиб	
Русский язык как пространство межкультурной коммуникации в литературе Узбекистана	242
Чернова Татьяна Алексеевна, Имамов Жавлонбек, Абдурахмонов Элбек	

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA KITOBXONLIK MADANIYATINI KREATIV YONDASHUVLAR ASOSIDA SHAKLLANTIRISH IMKONIYATLARI

Xolyigitova Bahoroy Kimsanboyevna

Guliston davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari va samarali yo'llari yoritilgan. Muallif oliy ta'lim jarayonida talabalarning mutolaa madaniyatini yuksaltirishda innovatsion metodlar, keys-stadi va kreativ topshiriqlardan foydalanish muhimligini asoslab bergan. Maqolada bo'lajak pedagoglarning kasbiy kompetentligini oshirishda kitobxonlikning o'rnini va ushbu jarayonni tashkil etish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kitobxonlik, keys-stadi, pedagogika, innovatsiya, kreativlik, kompetentlik, raqamli ta'lim, axborot, rivojlantirish, kitob, madaniyat.

Abstract: This article discusses pedagogical opportunities and effective ways to form a reading culture in future primary school teachers based on creative approaches. The author substantiates the importance of using innovative methods, case studies, and creative tasks in improving students' reading culture in the process of higher education. The article discusses the role of reading in improving the professional competence of future teachers and develops methodological recommendations for organizing this process.

Key words: reading, case studies, pedagogy, innovation, creativity, competence, digital education, information, development, book, culture.

Аннотация: В данной статье рассматриваются педагогические возможности и эффективные способы формирования культуры чтения у будущих учителей начальной школы на основе творческих подходов. Автор обосновывает важность использования инновационных методов, тематических исследований и творческих заданий для повышения культуры чтения учащихся в процессе высшего образования. В статье обсуждается роль чтения в повышении профессиональной компетентности будущих учителей и разрабатываются методические рекомендации по организации этого процесса.

Ключевые слова: чтение, тематические исследования, педагогика, инновации, креативность, компетентность, цифровое образование, информация, развитие, книга, культура.

KIRISH

Bugun global rivojlanayotgan va raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilayotgan sharoitda yoshlarning kitobxonligini rivojlantirish masalasi dolzarb vazifalardan biri bo'lib qolmoqda. Har qanday taraqqiyot va rivojlantirishning markazida inson turadi va bu holatda o'qituvchining yoshlar kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishdagi o'rnini muhim ahamiyat kasb etadi.

Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish bugungi kundagi maktablarning ustuvor vazifalariga aylangan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 13.09.2017 yildagi PQ-3271-son¹ "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi^[1] farmoyishi yuqoridagi fikrlarimizning yorqin dalilidir.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi^[2] PF-5538-son² farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi^[3] PF-5712-son³ farmonida inson kapitalini shakllantirish-

1 <https://lex.uz/docs/-3338600>

2 <https://lex.uz/docs/-3893445?ONDATE=30.12.2021>

3 <https://lex.uz/ru/docs/-4312785>



ning asosiy bo'g'ini bo'lgan tizimda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalar va ularni hayotga tatbiq etish yo'llari atroflicha belgilab berildi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Kitob o'zida rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi ulkan imkoniyatni saqlaydi, o'quvchini insoniyatning ma'naviy tajribasiga oshno etadi, uning aqlini rivojlantirib, his-tuyg'ularini yuksaltiradi. U yoki bu asar o'quvchi tomonidan qanchalik chuqur va to'liq qabul qilinsa, bu asar uning shaxsiga shunchalik katta ta'sir ko'rsatadiki, o'quvchi o'z oldiga buyuk maqsadlar qo'yib, yomon illatlardan saqlanadi. Shuning uchun ham ta'limning yetakchi vazifalaridan biri o'quvchilarda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni shakllantirish, undagi voqea va hodisalarni tahlil etishga o'rgatishdir. Buning uchun, avvalo, har bir o'qituvchi, u qaysi fandan dars berishidan qat'i nazar, o'quvchini kitob o'qishga qiziqtirish yo'llari va shart-sharoitlarini bilishi zarur.

Kitobning dunyoga kelishi ijtimoiy taraqqiyotga bog'liq bo'lgani kabi, uni mutolaa qilish ham o'zining tadrijiyligiga ega. Shu ma'noda zamonaviy kitoblarning kitobxon xususiyati, nashrdan kuzatiladigan maqsad hamda mavzuga ko'ra farqlanishi mutolaa jarayonlarini oqilona tashkil etish uchun qo'l keladi. Xususan, ular ommaviy kitobxonlarga, mutaxassislariga hamda bolalarga mo'ljallangan kitoblarga, nashrdan kuzatilgan maqsadga ko'ra esa rasmiy, ilmiy, ilmiy-ommabop, o'quv, adabiy-badiiy, ma'lumotnoma, reklama va hokazo kitoblarga ajratiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish va uni mustaqil fikrlash ko'nikmalari bilan uyg'unlashtirishga oid ilmiy manbalar pedagogika, psixologiya va o'qitish metodikasi yo'nalishlarida keng yoritilgan. Normativ-huquqiy hujjatlar, xususan, Prezident qarorlari va "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunda yosh avlodni ma'naviy yetuk, erkin fikrlaydigan shaxs sifatida tarbiyalash dolzarb vazifa sifatida belgilangan bo'lib, bu kitobxonlikni rivojlantirish bo'yicha ilmiy izlanishlarning konseptual asosini tashkil etadi.

Pedagogik adabiyotlarda Jumayev, Usmonov, Xolmatova, Hasanboeva, Turaqulov, Zunnunov kabi olimlar interfaol metodlar, kitob tanlash mezonlari, boshlang'ich yoshdagi bolalarning psixologik xususiyatlari va o'quv jarayonini samarali tashkil etish bo'yicha nazariy-amaliy tavsiyalarni ilgari suradilar. Psixologik yondashuvlarda Karimova va Vygotskiy tafakkur, idrok jarayonlari va kitob orqali kognitiv rivojlanishning ilmiy asoslarini ochib beradi. Shavkatovanning tadqiqotida oilaviy mutolaa an'analari va ota-onalarning o'rni yoritilgan bo'lsa, Bloomning kognitiv darajalar nazariyasi kitobxonlik asosida tanqidiy va mustaqil fikrlashni shakllantirishning metodik asoslarini belgilab beradi.

Ilmiy adabiyotlarning keng tarqalgan turi monografiyalardir. O'quv adabiyotlariga esa darsliklar, o'quv-metodik qo'llanmalar va boshqa adabiyotlar kiradi. Mavzuga ko'ra esa kitoblar kutubxona bibliografiyasi asosida tasniflashtiriladi [6]. Kitobga muhabbat va mustaqil o'qishga qiziqishning mohiyati to'g'risidagi ziddiyatli fikrlarni qiyoslashni erta va eng so'nggi tadqiqotlarga murojaat etib davom ettirish ham mumkin, ammo ular kitobni inson hayotiga kiritish muammosi o'rganilayotganida barchasi qanchalik "oson" va barchasi qanchalik "murakkab" ekanligi to'g'risidagi xulosa uchun mavjud asosga hech nima qo'shimcha qilmaydi.

Darhaqiqat, kitob o'zida rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi ulkan imkoniyatni saqlaydi, o'quvchini insoniyatning ma'naviy tajribasiga oshno etadi, uning aqlini rivojlantirib, his-tuyg'ularini yuksaltiradi. U yoki bu asar o'quvchi tomonidan qanchalik chuqur va to'liq qabul qilinsa, bu asar uning shaxsiga shunchalik katta ta'sir ko'rsatadiki, o'quvchi o'z oldiga buyuk maqsadlar qo'yib, yomon illatlardan o'zini saqlaydi. Shuning uchun ham ta'limning yetakchi vazifalaridan biri o'quvchilarda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini shakllantirish, undagi voqea-hodisalarni tahlil etishga o'rgatishdir. Buning uchun, avvalo, har bir o'qituvchi, u qaysi fandan dars berishidan qat'i nazar, o'quvchini kitob o'qishga qiziqtirish yo'llari va shart-sharoitlarini bilishi zarur.

O'quvchilarni intellektual jihatdan rivojlantirishda kitobxonlik va kitob mutolaasining ahamiyati beqiyos. O'quvchilarni kitobxonlikka qiziqtirish asosida mustaqil fikrlash sohalarini rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Ko'p asrlar mobaynida ajdodlarimiz o'z farzandlari va shogirdlarini kitob mutolaasiga o'rgatishga alohida e'tibor qaratganlar. Kitobxonlik yordamida yosh avlodni ulkan madaniy merosimiz va jahon ilm-fani yutuqlari bilan yaqindan tanishtirish imkoniyati vujudga keladi.

TADDIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini kreativ yondashuvlar asosida shakllantirish imkoniyatlarini aniqlashga qaratilgan nazariy va amaliy metodlardan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, kompetensiyaviy yondashuv hamda kreativ pedagogika tamoyillari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy-pedagogik, psixologik va metodik adabiyotlarni tahlil qilish, normativ-huquqiy hujjatlarni o'rganish, qiyosiy tahlil, umumlashtirish va tizimlashtirish metodlari qo'llanildi. Shuningdek, kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy qarashlari o'rganilib, ularning mazmuni tahlil qilindi.

Amaliy bosqichda pedagogik kuzatish, suhbat va reflektiv tahlil metodlaridan foydalanildi. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kitob mutolaasiga bo'lgan munosabati, kitobxonlik faoliyati va kreativ topshiriqlarni bajarish jarayonidagi faolligi kuzatildi. Kreativ yondashuvlar sifatida "Aqliy hujum", "Rol o'ynash", "Kitob qahramonlari teatri", "Muqova yaratish", keys-stadi va loyiha metodlarining pedagogik imkoniyatlari tahlil qilindi.

Tadqiqot natijalarini qayta ishlashda tavsifiy tahlil, qiyoslash va umumlashtirish usullaridan foydalanildi. Olingan ma'lumotlar asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishning samarali shakl va usullari aniqlanib, tegishli metodik tavsiyalar ishlab chiqildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning kitobxonlikka bo'lgan qiziqishini kuchaytirishda an'anaviy usullardan tashqari zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash yuqori samaradorlikka erishishga yordam beradi. Jumladan:

1. **Interfaol metodlar:** "Aqliy hujum", "Munozara", "Rol o'ynash" kabi metodlar o'quvchilarga matn mazmunini chuqur anglash, muhokama qilish, turli nuqtayi nazarlarni tinglash va o'z fikrini dalillar bilan asoslash imkonini yaratadi.
2. **Axborot texnologiyalari:** elektron kitoblar, audiokitoblar, ta'limiy mobil ilovalar va interfaol platformalar o'quvchilarning kitobxonlik jarayonini yanada qiziqarli qiladi.

Kitob mutolaasi jarayonida o'quvchi matn mazmunini anglaydi, qahramonlarning fe'l-atvori va xatti-harakatlarini baholaydi, ularning taqdiri haqida shaxsiy fikr bildiradi. Bu jarayon tanqidiy va ijodiy fikrlashning shakllanishiga xizmat qiladi. Masalan, badiiy asarni o'qigan o'quvchi qahramonning qarorlarini o'z hayotiy tajribasi bilan taqqoslab, "Agar men shu vaziyatda bo'lsam, qanday qaror qabul qilgan bo'lardim?" degan savolga javob izlaydi. Shu tarzda unda mustaqil qarash, xulosa chiqarish va vaziyatga ongli yondashish ko'nikmalari rivojlanadi.

Shaxsda kitob o'qish va kitobxonlikka ijobiy munosabatni qaror toptirish o'z-o'zidan ro'y bermaydi. Buning uchun har bir shaxsni maktabgacha ta'lim yoshidan boshlab kitoblar bilan tanishtirish, ularning jamiyat va inson hayotidagi ahamiyati, amaliy qiymatini tushunishlari uchun zarur pedagogik shart-sharoitlarni yaratish lozim. Shaxsni kitoblar bilan tanishtirishda uzluksiz ta'limning izchil, tizimli va maqsadli amalga oshiriladigan dastlabki bo'g'ini - boshlang'ich sinflar o'ziga xos o'rin tutadi. Boshlang'ich sinflarda tashkiliy-metodik jihatdan pedagogik, psixologik talablar negizida tizimli faoliyatning yo'lga qo'yilishi boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik ko'nikmalarini samarali rivojlantirishga imkon beradi.

Tadqiqot jarayonida nazariy tahlil, pedagogik kuzatish, suhbat va qiyosiy tahlil metodlaridan foydalanildi. Avvalo, Jumayev, Xolmatova, Vygotskiy, Bloom kabi olimlarning kitobxonlik, tafakkur rivoji va interfaol metodlarga oid ilmiy qarashlari o'rganilib, boshlang'ich ta'limda kitobxonlikni rivojlantirishning metodik asoslari aniqlab chiqildi. Amaliy bosqichda boshlang'ich sinf o'quvchilarining mutolaa jarayoni, matn mazmunini anglash, qahramon xatti-harakatlarini baholash va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalari kuzatildi. "Aqliy hujum", "Rol o'ynash", "Savol-javob", audiokitoblardan foydalanish va "Kitob qahramonlari teatri" kabi pedagogik texnologiyalar sinov tariqasida qo'llanilib, ularning o'quvchilarda mustaqil fikrlashni rivojlantirishdagi samarasi baholandi. Tajriba natijalari kitobxonlik va mustaqil fikrlash o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini ko'rsatdi hamda maqolaning nazariy xulosalarini amaliy jihatdan tasdiqladi.

Tadqiqot davomida boshlang'ich sinf o'quvchilarining kitobxonlik faoliyati, matnni tahlil qilish jarayoni, qahramonlar xatti-harakatini baholay olish va mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmalari kuzatildi. Tahlil shuni ko'rsatdiki, badiiy asarlarni o'qish o'quvchilarning tafakkurini faollashtiradi, ularni obrazlar bilan ishlashga, voqealarning sabab-oqibat bog'liqligini anglashga hamda hayotiy vaziyatlarga o'z nuqtayi nazaridan yondasha olishga undaydi.

Interfaol metodlar ("Aqliy hujum", "Munozara", "Rol o'ynash") qo'llanilganda o'quvchilarning o'z fikrini erkin ifodalashi, savollarga mustaqil javob topishi va qahramonlarning qarorlarini tahlil qilishi sezilarli darajada kuchaygani aniqlandi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, kreativ yondashuv, o'yin texnologiyalari ("Kitob qahramonlari teatri", "Muqova yaratish"), audiokitoblar va elektron resurslar o'quvchilarda kitobga nisbatan qiziqishni oshiribgina qolmay, ularning tanqidiy, ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi^[4].

Ota-onalar ishtiroki yuqori bo'lgan oilalarda o'quvchilarning mutolaa faolligi, voqealarni tahlil qilish darajasi va mustaqil fikr bildirish qobiliyati yanada yuqori bo'lgani kuzatildi. Umuman olganda, kitobxonlikni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish o'quvchilarning intellektual salohiyatini sezilarli oshirishi, shaxsiy qarashlarni shakllantirishi va mustaqil fikrlashni rivojlantirishi tadqiqot natijalari orqali tasdiqlandi.

Keyingi yillarda o'quvchi yoshlarning kitobxonlik madaniyati ijtimoiy-pedagogik fenomen sifatida ko'plab tadqiqotlarning mavzusiga aylandi. Ilm-fan, jamiyatning yutuqlari va taraqqiyoti kitob bilan yuzaga keladi. Kitob



yoshlikda eng yaxshi murabbiy, qariganda esa undan yaxshiroq do'st yo'qligi xususidagi fikr va g'oyalarni juda ko'p eshitamiz.

Kitobning inson hayoti, kishilik jamiyati ma'naviy taraqqiyotidagi beqiyos o'rni qadimdan ma'lum. U dunyoni tanish, bilim berish bilan birga go'zallikka muhabbat uyg'otish, undan zavqlanish, yovuzlikdan nafratlanish tuyg'usini rivojlantiradi. Kitob o'quvchiga dunyoni anglab olishda ko'mak berish bilan bir qatorda uning ilmiy dunyoqarashini shakllantiradi, ijobiy xarakterni tarkib toptiradi, hayot va turmush ziddiyatlarini qanday qilib yechish yo'llarini o'rgatadi ^[6].

Bu vositalar mustaqil o'qish malakasini shakllantirishga va zamonaviy axborot manbalari bilan ishlash ko'nikmasini rivojlantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, boshlang'ich ta'limda kitobxonlikni rivojlantirish asosida mustaqil fikrlashga o'rgatish o'quvchilarning jismoniy-ma'naviy kamoloti, intellektual salohiyati va shaxsiy dunyoqarashining shakllanishida beqiyos ahamiyat kasb etadi.

Kreativ yondashuv - kitobxonlik faoliyatini boshqa fanlar bilan uyg'unlashtirish (masalan, tarixiy asarlarni tarix darsida muhokama qilish, tabiat haqidagi asarlarni tabiatshunoslik darslari bilan bog'lash) orqali o'quvchilarning mustaqil fikrlash ko'nikmalarini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. O'qituvchi o'quvchilarni kitobxonlikka jalb etishda asosiy vositachi sifatida muhim rol o'ynaydi. U nafaqat kitoblarni tanlaydi, balki ularni o'quvchilarning yosh xususiyatlari va qiziqishlariga mos tarzda tavsiya etadi, mutolaa jarayonidan so'ng turli savollar berib, o'quvchilarda mustaqil fikr bildirish ko'nikmasini rag'batlantiradi. Masalan:

1. "Bu voqea qahramonning xatti-harakatini qanday baholaysan?"
2. "Sen o'sha vaziyatda bo'lsang, qanday qaror qabul qilarding?"
3. "Qaysi qahramon senga o'xshaydi va nega?"

Bunday savollar o'quvchini tayyor javoblarga tayanishdan chetlashtirib, mustaqil fikrlash va asosli xulosa chiqarishga yo'naltiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish jarayonida ota-onalarning roli beqiyosdir. Oilada kitobxonlik muhiti yaratilishi bolaning kitobga bo'lgan qiziqishini sezilarli darajada oshiradi. Ota-ona bilan birgalikda kitob o'qish, o'qilgan asarlar yuzasidan suhbatlashish bolaning tasavvurini kengaytirib, mustaqil xulosa chiqarish ko'nikmasini rivojlantiradi. Bugungi kunda mustaqil fikrlashni shakllantirishda o'yin texnologiyalari va kreativ metodlardan foydalanish yuqori samara beradi. Masalan:

1. "Kitob qahramonlari teatri" - o'quvchilar kitobdagi voqealarni sahnalashtiradi va shu orqali o'z tasavvurini ijodiy namoyon etadi;
2. "Savol-javob marafoni" - o'quvchilar o'qigan asarlari asosida bir-birlariga savollar berib, mulohaza yuritadilar;
3. "Muqova yaratish" - o'quvchi o'qigan asar asosida yangi muqova chizadi, bu esa asarning mazmunini chuqur o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Ushbu metodlar o'quvchilarda kitobxonlikni rag'batlantiribgina qolmay, balki mustaqil, ijodiy va tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantiradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlikni rivojlantirish asosida mustaqil fikrlashga o'rgatish zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Mutolaa jarayoni o'quvchining tafakkur doirasini kengaytiradi, ularni mustaqil xulosa chiqarishga, voqea va hodisalarga o'z munosabatini bildirishga undaydi. Shu bois, kitobxonlikni pedagogik jarayonning ajralmas qismi sifatida yo'lga qo'yish, uni interfaol va innovatsion texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish dolzarb ahamiyatga ega.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kitobxonlik orqali shakllangan mustaqil fikrlash ko'nikmalari o'quvchilarda tanqidiy yondashuvni, ijodiy fikrlashni, shaxsiy qarashni himoya qilish qobiliyatini hamda ijtimoiy hayotga ongli munosabatni rivojlantiradi. Shuningdek, o'qituvchi va ota-onalarning hamkorlikdagi faoliyati bolalarda kitob o'qishga bo'lgan qiziqishni mustahkamlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Demak, boshlang'ich ta'limda kitobxonlikni rivojlantirish asosida mustaqil fikrlashni shakllantirish - ta'lim sifati, o'quvchilarning intellektual salohiyati, ma'naviy dunyoqarashi va jamiyatning intellektual taraqqiyotini ta'minlaydigan eng muhim omillardan biridir.

Kitobxonlik madaniyati tushunchasini kengroq talqin qilish uchun, avvalo, madaniyat tushunchasining ma'nosini tahlil qilish zarur. Mazkur tushuncha ma'nosi zamirida aniq ijtimoiy hodisalar, voqea-jarayonlar, tabiat bilan inson o'rtasidagi bog'liqlik va taraqqiyot qonunlari yotadi. Inson mehnatining mahsuli, yaratgan tafakkur durdonalari "madaniyat" sifatida qabul qilinadi va tarixga muhrlanadi.

Kitobxonlik madaniyati tushunchasi ma'naviy madaniyat turkumiga kiradi. Ma'naviy madaniyat - fan, san'at, adabiyot, falsafa, axloq, ma'rifat, inson ongi va tafakkuri bilan bog'liq bo'lgan boshqa ijtimoiy hodisalar yig'indisi hisoblanadi ^[5]. Ma'naviy madaniyatning muhim tarkibiy qismlaridan bo'lgan falsafiy va pedagogik madaniyat mutolaa qoidalari hamda kitobga bo'lgan muhabbat va bilimga intilish masalalarini ham o'z ichiga oladi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'quvchilarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish ta'lim mazmunini o'zlashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida kitobxonlik madaniyatini shakllantirish ularning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim omil ekanini ko'rsatdi.

Mutolaa jarayoni o'quvchilarning tasavvur doirasini kengaytirib, obrazli tafakkurini rivojlantiradi, qahramonlar xatti-harakatlarini tahlil qilish orqali xulosa chiqarish, o'z pozitsiyasini asoslash va hayotiy vaziyatlarga ongli yondasha olish qobiliyatlarini mustahkamlaydi. Interfaol metodlar, axborot texnologiyalari va o'yin asosidagi pedagogik yondashuvlar kitobxonlik jarayonini qiziqarli va samarali tashkil etib, o'quvchilarda mustaqil fikrlash faolligini oshirishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2017-yil 12-yanvardagi "Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ibot qilish bo'yicha komissiya tuzish to'g'risida"gi farmoyishi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-son farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-sonli Farmoni "O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi".
4. Safarova D.S. Kitobxonlik madaniyatini shakllantirish orqali o'quvchi-yoshlarni turli yot g'oyalar ta'siridan himoya qilish //Sovrkmennoye obrazovaniye O'zbekistan).-2017-№.6
5. Ibragimov X.I. Uzluksiz ta'lim jarayoni subyektlarining kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish: muammo va yechimlar mavzusidagi respublika ilmiy-amaliy konferensiya 20- 21 oktabr 2020 yil.
6. Jumayev M., Usmonov Q. Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar. - Toshkent: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2018-yil.
7. Xolmatova R. Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarda kitobxonlikni shakllantirish metodikasi. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2020-yil.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №6(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.